SIYOSAT

UDK: 338.3(575.1) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a62**

XOTIN-QIZLARDA TADBIRKORLIK TAFAKKURI VA UNING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ МЫШЛЕНИЕ У ЖЕНЩИН И ЕГО РОЛЬ В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

ENTREPRENEURIAL THINKING IN WOMEN AND ITS ROLE IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

G‘anyeva Malikaxon Sodiqjonovna[1]

[1]**G‘anyeva Malikaxon Sodiqjonovna** – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyatimizning yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish davrida xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurining mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va takomillashuvi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurining ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish, mustahkamlash asoslari, shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

Аннотация

В данной статье исследованы научно-теоретические основы сущности, специфики и совершенствования предпринимательского мышления у женщин в период реализации новой стратегии развития Узбекистана. Мы попытались проанализировать развитие, укрепление социальных, культурных, экономических и правовых основ предпринимательского мышления у женщин с социально-философской точки зрения, а также его значение для развития нашей страны.

Abstract

In this article, the content, specifics and improvement of Women's entrepreneurial thinking in the period of implementation of the development strategy of the new Uzbekistan of our society was studied scientifically and theoretically. We tried to socially-philosophically analyze the development, strengthening of the social, cultural, economic and legal foundations of women's entrepreneurial thinking, as well as the importance in the development of our country.

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, xotin qizlar tadbirkorlik, biznes falsafa, ijtimoiy fenomen, falsafiy tahlil, ayol tadbirkor.*

Ключевые слова: *предпринимательство, женское предпринимательство, философия бизнеса, социальное явление, философский анализ, женщина-предприниматель.*

Key words: *entrepreneurship, women entrepreneurship, business philosophy, social phenomenon, philosophical analysis, woman entrepreneur.*

KIRISH

Jamiyatimiz farovonligini ta’minlash ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni joriy etilishi bilan amalga oshiriladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda, jamiyat va inson kapitalini rivojlanishi, mehnat unumdorligini oshirish, jamiyat subyekti hisoblangan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish asoslari iqtisodiy tafakkur va madaniyati darajasiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “...mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berish borasida o‘z oldimizga qo‘ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaqa va jahon bozorlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib qo‘ymoqda” [3.209].

Bu jarayonda xotin-qizlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning o‘z mehnat sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini yaratish eng dolzarb vazifalardan biridir. Zero, iqtisodiy globallashuv sharoitida, bugungi taraqqiyot strategiyasini belgilab olgan yangi jamiyatni barpo etish barcha sohalarini qamrab olinishi shartdir. Bu esa o‘z o‘rnida xotin-qizlar dunyoqarashini o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyevning “...biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak” [4.] — degan fikrlarini dasturiy amal qilgan holda yoshlarni bu voqeliklarda ijodiy tashabbus va tadbirkorligi, o‘z kuchi va salohiyatiga suyanishi rag‘batlantiriladi, samarali iqtisodiy faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi va albatta, ishlab chiqarish ularning manfaatlariga bo‘ysundiriladi. Bu esa jamiyatni iqtisodiy, ma’naviy-

madaniy omillarini va ijtimoiy me'yorlar, bozor munosabatlari, pul-moliya kabi ijtimoiy tuzilmalar faoliyatida xotin qizlarning ishtiroki va mavqeyini mustahkamlash zaruratini oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti tashabbuskorlik, omilkorlik, yuksak tadbirkorlikni talab qiladi. Ammo iqtisodiy tafakkur rivojlanmagan xotin qizlarda bu fazilatlarni qaror toptirib bo‘lmaydi. Iqtisodiy tafakkur xotin qizlarning ehtiyojlari va manfaatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu ma'noda har bir davlatning kelajagini, uning ertangi salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlami — xotin qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq” [1.252]. Yoshlar, ayniqsa, xotin qizlar jamiyatning ertangi kelajagi, uning faol a'zosi, ta'bir joiz bo‘lsa, jamiyat erta-sining munosib vorislaridir. Mazkur nuqtayi nazarga ko‘ra yoshlar davlat va jamiyat tomonidan doimiy e'tibor talab etadigan ijtimoiy qatlamning muhim qismidir. Iqtisodiy tafakkur insonni o‘rab turgan dunyoni, borlig‘ini tafakkur, bilish, ma'naviy rivojlanish shakllaridan biri bo‘lib, voqea va harakatlarni bashorat qilish, yangi g‘oyalar yaratish, uni amalga oshirish yo‘llarini topish vazifasini bajaradi.

Inson ma'naviyati uning iqtisodiy faolligini ta'minlaydi, qolaversa, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy talabi hamdir. Bu esa zamonaviy jamiyatda xotin qizlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirish hamda ularning moddiy va ma'naviy olamini boyitishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik faoliyati masalasi va u bilan bog‘liq munosabatlar qadim sivilizatsiyalar davridan boshlab tinimsiz yuksalib kelmoqda. Zamonlar osha tadqiqotchi olimlar qizishlarining markazida bo‘lib kelmoqda. Bu haqida ko‘plab Sharq va G‘arb mutafakkirlarining munosabatlarida ham bilsa bo‘ladi. Bizning tadqiqotimiz iqtisodiy tafakkur bo‘lganligi sababli tarixiy jihatlarini ayrim jabhalarini o‘rganib chiqish bilan kifoyalandik. Tadqiqot vazifasiga bugungi davr, jamiyatimiz taraqqiyotiga ta'sirini o‘rganish bo‘lganligi sababli, xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurini falsafiy jihatlarini tadqiq qilishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Faylasuf tadqiqotchi olimlar “tadbirkorlik tafakkuri” masalasiga tadqiq etganda inson yer yuzida yashay boshlagan davrdan boshlab to shu kungacha davom etib kelayotgan hayot faoliyatini iqtisodiy jihatdan o‘zgartirish va o‘zlashtirishga qaratilgan insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos bir shakli ma'nosida o‘rganganlar. Ta'kidlash joizki, tadbirkorlik bilim va ko‘nikmalari insonlar ongida ma'lum jarayon sifatida zaruriy ehtiyojga aylanadi. Bu esa tadbirkorlik tafakkur sifatida insonlar, xususan, xotin-qizlar ongi va qalbida iqtisodiy-mulk, huquqiy munosabatlar sifatida tafakkurning oliy ko‘rinishi shakli namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlarning iqtisodiy tafakkuri birinchi o‘rinda va ikkinchi o‘rinda ijtimoiy voqelik sifatida namoyon bo‘ladi. Alloh tomonidan insonga ato etilgan aql-zakovatning mahsuli tafakkur sifatida insonlarning barcha faoliyatida yuzaga kelgan va shaxslararo munosabatda o‘z ifodasini topadi. Tadbirkorlik tafakkurining qanchalik rivojlanganligiga qarab, xotin qizlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ta'sirini L.C.Blyaxman tadbirkorlik tafakkurni “...bozor munosabatlarining inson ongida aks etishi, ular tomonidan tadbirkorlik bilimlarni o‘zlashtirish va ularning ongida tadbirkorlik faoliyatda namoyon bo‘lishi jarayoni” [5.24] — deya ta'riflaydi. Bu ta'rif iqtisod nuqtai nazardan ta'kidlangan bo‘lsa-da, bizningcha, unda iqtisodiy tafakkurning mazmun-mohiyati ochib berilmagan.

NATIJALAR

Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy ong tushunchasiga berilgan ta'rifini asos qilib olsak, bizningcha: “tadbirkorlik tafakkuri ijtimoiy ong shakllari bo‘lib, shaxsning zamonaviy jamiyatni moddiy va ma'naviy hayotida, xususan, kishilar o‘rtasida bo‘ladigan bozor munosabatlarni his etish, aqliy jihatdan anglab etish va kelajakdagi o‘zgartirishlarga qaratilgan g‘oyalar, ideallar, qarashlar va nazariyalarning yaxlit tizimidir”. Bu esa xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkuri hissiy bilishda va aqliy tafakkur qilishdagi jihatlari bilan farqlanadi. Bunda xotin-qizlarning tadbirkorlik tafakkurining alohida ajralib turadigan jihatlariga e'tibor berish kerak. Shu o‘rinda jamiyatning faol davomchilari bo‘lmish xotin qizlarning tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish va rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xotin qizlar tadbirkorlik tafakkuri quyidagi sifatlarida namoyon bo‘ladi:

- xotin qizlar tomonidan tadbirkorlikka oid kategoriyasi va qonunlarning anglanishi jarayonida hamda uni ijtimoiy hayotga tatbiq etilishida;
- jamiyatdagi munosabatlarda xotin qizlar tadbirkorlik tafakkurini vujudga kelishi xulosalarini anglab etilishida;
- xotin qizlarni tadbirkorlik tafakkuridan samarali foydalanish layoqatida;

- idrok, tasavvur va sezgi bilan bevosita his qilinmaydigan bozor munosabatlarni xotin qizlar tafakkurida aks ettiruvchi hodisalarning namoyon bo‘lishida.

Fikrimizcha, bu o‘z navbatida xotin qizlarning tadbirkorlik tafakkurini tarkibiy tuzilmasi sifatida quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tadbirkorlik faoliyat mohiyatini anglash, ya’ni xotin qizlar tomonidan o‘zi olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida birlamchi ma’lumotga ega bo‘lishi uning keyingi faoliyati uchun startap vazifasini o‘taydi; ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishning aks etishi, turlari va qonuniyatlari to‘g‘risida umumlashgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish, ya’ni har bir subyekt o‘z faoliyat turi va shaklini tanlashi hamda shu soha bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lishi talab etiladi; uchinchidan, nazariy jihatdan xotin qizlar tafakkuridagi g‘oyalarning amaliy harakatiga aylanadigan faoliyatni hayotga tatbiq eta olishdir.

Xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurining quyidagi tarkibiy tuzilmalari asosida shakllanishi kuzatilmoqda:

- jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot faoliyatida subyekt sifatida, ya’ni tadbirkorlik munosabatlarining faol ishtirokchisi;
- xotin qizlarning tafakkurida iqtisodiy ong hamda xulq-atvor rivojlanishida;
- ayol tadbirkorlarning faoliyati natijasida jamiyat tadbirkorlik faoliyatini yuksalishida;
- ta’lim — tarbiya jarayonlarining iqtisodni kuchaytirilishi sababchisi sifatida;
- xotin qizlarning tadbirkorlik faoliyatlari davomida tadbirkorlik madaniyat va tafakkurini boyib borishi sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Xotin qizlardagi tadbirkorlik tafakkurini baholashning ikkinchi mezoni — zamonaviy voqelikni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi sharoitlarini hisobga olish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonining mohiyatini norasmiy idrok etish, miqdoriy jihatdan emas, balki sifat toifalarida fikrlash, yakuniy natijaga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Integratsiyani rivojlantirish va chuqurlashtirish, jahon bozoriga chiqish, qo‘shma korxonalarni tashkil etish nafaqat keng dunyoqarash, maxsus tayyorgarlik, balki faoliyat sohasining bunday sezilarli darajada kengayishiga xotin qizlarning kasbiy tayyorgarligini ham talab qiladi. Bir mamlakatning ijobiy tajribasi boshqasiga ijobiy natijalar berishi uchun quyidagilar zarur:

– birinchidan, bir davlatning milliy tajribasidan xalqaro (umuman ahamiyatli)ni ajratib ko‘rsatish to‘g‘ri;

– ikkinchidan, bu xalqaro maydonda o‘z mamlakatining milliy o‘ziga xos sharoitlarini aniq, har tomonlama tahlil qilish asosida to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak.

Tafakkurda tadbirkorlik munosabatlarda obyektni rivojlanish manbasi sifatida tadbirkorlik amaliyotda, ziddiyatlarda, rag‘batlantirilishda va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi.

Xotin qizlarning tadbirkorlik tafakkurining ontologiya jihatlari — ongning ongga munosabatini belgilaydi, “tadbirkorlik tafakkur” hodisasining mohiyatini, mavjudlikning tashqi shakllari va uning ongi shakllaridan biri bo‘lgan hodisaning ichki asosiy mazmun mohiyatini ochib beradi. Tadbirkorlik tafakkuri hodisasi va mohiyati dinamika va rivojlanishda hisobga olinsa, ontologik tadqiqot salohiyatining funksional ahamiyati ortadi. Tadbirkorlik tafakkur subyektlarini o‘rab turgan voqelik harakatining ontologik mazmuni tadqiqot predmetining nazariy tushunchalarini adekvat izohlashda namoyon bo‘ladi va gnoseologik funksiyani amalga oshirish bosqichi, uni idrok etish orqali bilishning boshlanishi bo‘lib xizmat qiladi. Xotin qizlarning tadbirkorlik tafakkurining gnoseologik mazmuni avvalo, xotin-qizlarning tadbirkorlik munosabatlarda o‘zlashtirgan bilim va malakalari hamda ma’naviy-ruhiy munosabatlari tashkil etadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy-falsafiy jihatdan, xotin qizlarning tadbirkorlik tafakkurini subyektlari sifatida tadbirkorlik bilim hamda bilimlarni o‘zlashtirish, ularni egallash jarayonidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarda tafakkurning tub mohiyatini belgilasha bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mulkiy munosabatlarda muhim tushunchaga ega hisoblangan mulk bizningcha, – muayyan shaxslarning, ijtimoiy guruhlarning, jamiyat a’zolarining hamda jamoalarning o‘zlashtirgan, tasarruf etgan tabiat va insonning aql-zakovati, mehnati bilan yaratilgan ma’naviy va moddiy boyliklardir.

Xotin-qizlarning mulkka bo‘lgan munosabati boshqalardan boshqacharoq shaklda rivojlanadi. Chunki ularning dunyoqarashi shakllanishi davr va makonda yuksaladi. Shunga ko‘ra “mulk” mazmun-mohiyatini ijtimoiy-falsafiy kategoriya jihatdan o‘rganish xususiyati har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mohiyati va ma’no-mazmunini belgilab beradi. Bu esa yoshlarning

psixologik va ma’naviy dunyosi, iqtisodiy tafakkuri rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xotin qizlarda hayotga bo‘lgan munosabat o‘zga mamlakat va xalqlar xotin qizlari iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalaridan farq qiladi. Shunga ko‘ra, mulk va mulkiy munosabatlar mavhum tushuncha emas, balki xotin qizlar tafakkurida aniq ontologik asosda va gnoseologik mazmunda ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega hisoblanishi mumkin.

Mulkchilik tizimi ko‘p tarkibli shaklda xilma-xil mulk shakllarini huquqiy jihatdan tenglik asosda faoliyat yuritadigan tizimga bog‘liqdir. Bunda tizimning barcha mulkchilik shakllarining faoliyati uchun bir xil huquqiy sharoiti yaratilmoqda. Bu esa barcha xotin qizlarga, birinchidan, mulkdor bo‘lishi imkoniyatini beradi; ikkinchidan, o‘z mulkini erkin tasarruf imkonini beradi; uchinchidan, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, erkinlik va rag‘batlantirilmoqda. Natijalarda jamiyatdagi mulkiy muvozanat qaror topmoqda. Bizlarning, yoshlarning xo‘jalik yuritish faoliyatida keskin ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda, ularning ongida zamonaviy iqtisodiy tafakkur tarzi shakllanadi va shu asosda yangicha ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash vujudga kelmoqda.

XULOSA

Xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurini jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rnida mulk shakllarini egallash, o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonidagi munosabatlarining ichki hamda tashqi tuzilishini ifodalaydigan jarayonlarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, xotin qizlar tadbirkorlik tafakkurini jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rnidagi munosabatlarda dialektik bog‘liqlik quyidagilarda ko‘rinadi.

Birinchidan, xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurini jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni har qanday mulkchilik tizimining mazmunida namoyon bo‘ladi. Bunda bir tarkibli mulkchilik tizimining mazmunini jamiyatdagi aksariyat mulkka egalik qilgan mulk subyektlarining o‘zaro mulkiy munosabati, uni shaklini ichki va tashqi tomonlari birligining ifodasi bo‘lgan xususiy mulk yoki davlat mulki tashkil qilishidadir.

Ikkinchi, xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurini jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida har qanday mulkchilik tizimida mulkiy munosabatlar hal qiluvchisi hisoblanadi.

Uchinchidan, xotin-qizlar tafakkurida mulkiy munosabatlarga faol ta’sir ko‘rsatadigan, ya’ni ularning mulkiy munosabatlarini rivojlanishiga ta’sir etadigan yangi tipdagi mulkiy munosabatlar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib, xotin-qizlar tadbirkorlik tafakkurini jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni tarixiylik nuqta-nazaridan kishilik tarixining barcha bosqichlarida asosan shaxsiy va xususiy mulk hamda jamoaviy mulk va davlat mulki kabi shakllari mavjud bo‘lganligida ko‘rimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. - Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU. 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T-13. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Uchinchi Renessans - milliy g‘oya sifatida. // Xalq so‘zi. 2020 yil 8 sentyabr.
5. Бляхман Л.С. Перестройка экономического мышления. - Москва: Политиздат. 1990.
6. Ganiyev B.S. (2019). INNOVATIVE (ENTREPRENEURIAL) ACTIVITY OF WOMEN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF OUR SOCIETY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1 (11), 122-129.
7. Ganiev, B. (2018, May). Философский анализ культуры предпринимательства. In Proceedings of the XXIII World Congress of Philosophy (Vol. 49, pp. 79-84).
8. Ganiyeva Malika Sadikjonovna THE ROLE OF WOMEN IN THE “ENTREPRENEURIAL WOMAN” SYSTEM // Выпуск № 4(68) (апрель, 2022). http://forum-nauka.ru